

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

ZAMONAVIY XITOIY SHE'RIYATI EVOLUTSIYASINING TARIXIY SABABLARI  
XUSUSIDA*Ozodjon Achilov**Tadqiqotchi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** yangi she'riyat, she'riyat inqilobi, diniy-falsafiy qarashlar, evolyutsiya, adabiy maktablar

**Annotatsiya:** Asosiy mezonni nafislik hisoblangan hamda qat'iy metrik me'yorlar va an'anaviy estetik talablarga ega bo'lgan mumtoz she'riyat o'z o'rnini xalqchil, mavjud qoidalardan holi, o'zining yangicha estetik tamoyillariga ega bo'la boshlagan she'riyatga bo'shatib berdi. Bu o'zgarishlar jarayoni estafeta singari bir adabiy oqimdan boshqasiga o'tib bordi: dastlab yuzaga kelgan vatanparvarlik she'riy oqimi yangi she'riyat oqimiga, undan inqilobiy she'riyat oqimiga o'tib nihoyat "4-may" adabiy-madaniy harakatining faol ishtirokchilari va she'riyatni to'liq bayxua tiliga o'tkazish tarafdorlari bo'lgan adiblarga yetib keldi. Va shu tariqa xitoy she'riyatining uzoq va murakkab o'tgan dastlabki evrilishlar davri o'z nihoyasiga yetdi. Maqolada xitoy she'riyatida yuz bergan jvrlilishlar jarayonining tarixiy ildizlari borasida ayrim fikr-mulohazalar keltiriladi.

ON THE HISTORICAL CAUSES OF THE EVOLUTION OF MODERN CHINESE  
POETRY*Ozodjon Achilov**Researcher**Tashkent State University of Oriental Studies,**Tashkent, Uzbekistan*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** new poetry, poetic revolution, religious and philosophical views, evolution, literary schools

**Abstract:** Classical poetry, which considered elegance as the main criterion and had strict metrical standards and traditional aesthetic requirements, gave way to popular poetry, free from existing rules, which began to have its own new aesthetic principles. This process of changes passed from one literary stream to another like a relay: the patriotic poetic stream that appeared at the beginning moved to a new poetry stream, then to a revolutionary poetry stream, and finally, active participants of the "May 4" literary and cultural movement and

poetry completely it reached the writers who were supporters of the transfer to the Baihua language. And thus, the long and complex period of early evolution of Chinese poetry came to an end. The article presents some opinions about the historical roots of the process of transformations in Chinese poetry.

## ОБ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРИЧИНАХ ЭВОЛЮЦИИ СОВРЕМЕННОЙ КИТАЙСКОЙ ПОЭЗИИ

*Озоджон Ачилов*

*Исследователь*

*Ташкентский государственный университет востоковедения,*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
новая поэзия, поэтическая революция, философские взгляды, эволюция, литературные школы	Классическая поэзия, главным критерием которой было изящество и имела строгие метрические нормы и традиционные эстетические требования, уступила место свободной от существующих правил народной поэзии, которая стала иметь свои новые эстетические принципы. Этот процесс смены переходил от одного литературного потока к другому, как эстафета: возникший сначала патриотический поэтический поток становился новым поэтическим потоком, затем революционным поэтическим потоком и, наконец, дошел до писателей, которые были активными участниками «4 мая». Литературно-культурное движение и сторонники полного перевода поэзии на язык байхуа. Так завершился долгий и сложный период раннего развития китайской поэзии. В статье представлены некоторые мнения об исторических корнях процесса преобразований в китайской поэзии.

### KIRISH

Xitoy mumtoz she'riyatining zavol topish davri bo'lgan Afyun urushi arafasidan boshlab Hu Shining "Bayxuada sakkiz she'r" ("白话八首") nomli she'rlar turkumi 1917 yil "Yangi yoshlar" (《新青年》) jurnalida nashr etilishigacha bo'lgan vaqt an'anaviy she'riyatdan zamonaviy she'riyatga o'tish davri bo'ldi. Bu paytda asta-sekin asosiy mezoni nafislik hisoblangan hamda qat'iy metrik me'yorlar va an'anaviy estetik talablarga ega bo'lgan mumtoz she'riyat o'z o'rnini xalqchil, mavjud qoidalardan holi, o'zining yangicha estetik tamoyillariga ega bo'la boshlagan she'riyatga bo'shatib berdi. Bu o'zgarishlar jarayoni estafeta singari bir adabiy oqimdan boshqasiga o'tib bordi: dastlab yuzaga kelgan vatanparvarlik she'riy oqimi yangi she'riyat oqimiga, undan inqilobiy she'riyat oqimiga o'tib nihoyat "4-may" adabiy-madaniy harakatining faol ishtirokchilari va she'riyatni to'liq bayxua tiliga o'tkazish tarafdorlari bo'lgan adiblarga yetib keldi. Va shu tariqa xitoy she'riyatining uzoq va murakkab o'tgan dastlabki evrilishlar davri o'z nihoyasiga yetdi.

Xitoy uzoq she'riyat tarixiga ega. She'riyat asrlar davomida insonlarga estetik zavq bag'ishlab kelgan bo'lsa-da, uning badiiy haqiqati odatda aytish mumkin va mumkin bo'lmagan so'zlar orasida bo'ldi, u qanchalik ohangdor, qanchalik so'zga boy bo'lmasin, insoniy tuyg'ularni tarannum etishga

nochorlik qildi, she'riyat qanchalik estetik go'zal va mukammal bo'lmasin, oqibat ma'noni to'la ifoda qilishga qiynaldi<sup>1</sup>.

YI Zhuxining fikricha, xitoy she'riyatidagi evrilishlar ham ma'lum bir xitoy insoniyat tarixi fonida yuz berdi va rivojlandi, ham jahon adabiyotining umumiy qonuniyatlari asosida amalga oshdi. Ya'ni xitoy she'riyati ham an'anaviy shakldan zamonaviyga o'ta boshladi, ham xorij madaniyati (adabiyoti) ta'sirida sekin-astalik bilan jahon adabiyoti to'liqlariga qo'shilib bordi, natijada milliy adabiyotning pulslari urishda davom etdi, bu xitoy she'riyatining alohida milliy koloretga ega ekanligida ko'rinadi<sup>2</sup>. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xitoy yangi she'riyatining shakllanishi xitoy an'alariga asoslangan yangicha madaniyat va xorij madaniyatining o'zaro qorishuvidan paydo bo'ldi va shu tariqa o'zini saqlab qoldi, degan xulosaga olib keladi.

Li Jintao xitoy she'riyatida yuzaga kelgan evrilish jarayonining asosiy uchta omili sifatida quyidagilarni sanaydi: mazmun jihatdan, badiiyati hamda yo'nalish xususiyatlariga ko'ra<sup>3</sup>. Mavjud "podsho va sodiq qul" munosabatidagi imperiya va imperator uchun jon fido qilish, sodiqlik kabi an'anaviy prinsiplar asosidagi vatanparvarlik kayfiyati zamonaviy dunyoga intilish ruhiyatidagi vatanparlik tomon o'zgarib bordi. Ziyoli qatlam o'rtasida imperatorlik va feodal tuzumga qarshi demokratiya, yangi bilimlarga intilish, fikr erkinligini ta'min etish kabi bir qator liberal qarashlar uyg'ondi, natijada ma'rifatparvarlik g'oyalari rivojlana boshladi. Bu esa davr she'riyatida an'anaviy mazmunning ozodlik, ma'rifatchilik targ'iboti tomon evrilishiga olib keldi. Badiiyat nuqtai nazaridan adabiyotni adabiy til sifatida yuksak mavqega ega bo'lgan venyandan xalq so'zlashuv tili hisoblangan bayxuuga o'tkazish, she'riy vaznga nisbatan belgilangan qat'iy qoidalarni soddalashtirish, an'anaviy obrazlardan chekingan holda she'riyatga yangi zamonaviy obrazlarni olib kirish hamda murakkab she'riy janrlar o'rniga sodda janrlarda ijod qilish kabilarni sanab o'tish mumkin. Uslub jihatidan qadimchilik yo'nalishlaridan voz kechgan holda romantizm va realizmni o'zida mujassamlashtirgan yangi she'r uslubini yaratishga intilishdan iborat bo'ldi.

Xitoy she'riyatining yangilanish jarayoni 19-asrning 40-yillaridan boshlanib 20-asrning ikkinchi o'n yilligiga qadar davom etgan uzoq davr bo'lib, Xitoyda kechgan turli murakkab siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy voqealar fonida yangi she'r yaratish harakati doim ham uzviy davom etmadi, bundan tashqari adabiyotshunoslar, yozuvchi-shoirilar o'rtasidagi keskin bahslar ham jarayonning bir tekis ketishiga yo'l bermadi. Shunday bo'lsada, ziyolilar tomonidan qo'yilgan maqsad yadrosi bitta, ya'ni yangi adabiyot yaratish, bu orqali xalqni g'afatdan uyg'otish, xitoy jamiyatini zamonaviy dunyo sari ildam boshlashdan iborat edi. Bunday maqsad adabiyotni, xususan she'riyatni sekin-sekin bo'lsada yangilanish tomon yetakladi.

Adabiyot tarixidan ma'lumki, har qanday adabiy harakat yoki jarayonning yuzaga kelishi o'zining chuqur ildizlariga ega bo'ladi. Bu aslida sekin-astalik bilan yuzaga keluvchi hodisa sifatida, 19-asrning ikkinchi yarmi va 20-asrning dastlabki ikki o'n yilligida ko'pgina sharq xalqlari adabiyotida bo'lgan singari o'zbek va xitoy adabiyotidagi keskin o'zgarishlarning sodir bo'lishi bir qator umumiy va xususiy sabablariga ega.

Butun bir jamiyat madaniyati ulkan tizimining muhim bir qismini tashkil qiluvchi she'riyat davrning hayot tarzi va ta'siriga tushmasligi imkonsizdir, ayniqsa ulkan tarixiy burilish paytida. Afsun urushlari Xitoydagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni keskin o'zgartirib yuborishi bilan bir qatorda xitoy she'riyatining yangilanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu urush asosan xitoy ilg'or ziyoli qatlamini sergaklantirdi, ular Xitoy taraqqiyot jihatidan har tomonlama ortda qolayotganligi, jamiyatning parokanda

<sup>1</sup>袁行霈：《中国诗歌艺术研究》· - 北京：北京大学出版社· 2009,第1页。(442页) (Yuan Singpen: Xitoy she'riyan san'ati tadqiqi.-Pekin: Pekin universiteti nashriyoti, 2009,-B.1.)

<sup>2</sup>Qarang: 易竹贤：《湖北省鲁迅学会、中国现代文学学会97学术年会开幕式词》1997.12.18-19日。

<sup>3</sup>李金涛：《艰难的突围：中国近代诗歌转型论》，-北京：中国文联出版社，2002，第2-3页。第2-3页。(Li Jintao: Murakkab jarayonlar: xitoy yaqin she'riyatida o'zgarishlar tadqiqi. - Pekin: Zhongguo wenlian nashriyoti, 2002,-B. 2-3.)

holatda ekanligi, asrlar davomida ishonib kelingan Xitoy dunyodagi eng buyuk imperiya aqidasiining barbod bo'lganligidan qattiq ta'sirlangan bo'lishi kerak. Bu quyidagi holatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi: birinchidan, ayrim she'riyat vakillarida she'rning funksiyalari borasidagi qarashlarda o'zgarish bo'la boshladi, she'riyat faqat romantik hislarni ifodalash emas, balki reallikni ham o'zida aks ettirish kerak degan xulosaga kela boshlashdi; ikkinchidan, she'riyatda imperializmga qarshi vatanparvarlik hamda shaxs erkiga intilish ruhiyati paydo bo'la boshladi; uchinchidan, lirik qahramon uchinchi shaxsdan birinchi shaxsga o'zgarib bordi.

Xitoy yaqin davr she'riyatining rivojlanish jarayoni aslida g'arb madaniyatini ta'sirini qabul qilish hamda millatni uyg'otishga bo'lgan kuchli harakat bilan uyg'unlashib, feodal tuzum she'riyatidan voz kechgan holda zamonaviy she'riyat tomon evrilish jarayonidir.

Bunday vaziyatda bir necha mingyillik tarixiga, o'zining asrlar davomida shakllangan an'analari va madaniyatiga ega bo'lgan Xitoy g'arb madaniyatining ta'siriga tushganligi va buning natijasida nafaqat xitoyliklarning turmush tarziga, balki bir qator sohalar kabi adabiyotda ham keskin o'zgarishlar bo'lishiga olib kelganligi sabablarini o'rganish aynan o'sha davr xitoy she'riyati bilan bir qatorda boshqa mamlakat va o'lkalarda dyarli bir paytda ro'y bergan evolyutsion jarayonlarning tub mohiyatini anglashimizga yordam beradi.

Madaniy almashinuv jarayoni, xususan bir madaniyatning boshqasiga ta'sir qilishi oddiy qonuniyat asosida ro'y beradi: taraqqiy etgan ilg'or madaniyat quyi darajadagi qoloq madaniyatga ta'sir etadi. Ingliz olimi Eduard Toynbi g'arb maniyatining Uzoq Sharqqa ta'siri haqida gapirar ekan, uning yana bir qonuniyatiga to'xtalib o'tadi. Toynbining fikricha, 19-asrda G'arb svilizatsiyasi Uzoq Sharq davlatlariga birinchi navbatda notanish yangi texnologiya sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, 16-asrda yangi notanish din sifatida namoyon bo'lgan edi. Yuqoridagi bu ikki holat Uzoq Sharq xalqlarining ongi va qalbida yuzaga kelgan reaksiyadagi farqni oldindan belgilab berdi: notanish dindan ko'ra notanish texnologiyani qabul qilish osonroq edi. Notanish din ta'sirida ruhiy qullikka duchor bo'lishdan ko'ra xorijiy texnologiyalarni qabul qilish dyarli xavfsizdek ko'rindi. Lekin, o'zga texnologiyani o'zlashtirib, boshqa madaniyat ta'siriga tushib qolmaslik mumkin degan qarash noto'g'ri bo'lib chiqdi. Haqiqat shundaki, madaniy makonning barcha individual elementlari bir-biri bilan chuqur ichki aloqaga ega, shuning uchun eski va tanish texnologiyalardan voz kechib, yangi va begona texnologiyalarni o'zlashtirib, o'zgarishlarni faqat texnologiya nuqta nazaridan ushlab turish mumkin emas. Ular sekin-astalik bilan chuqurroq va yana chuqurroq kirib boraveradi, asl madaniy an'analarga putur yetkazadi va begona madaniyat ilg'or texnologiya xanjari teshgan yoriqlardan o'tib tobora ko'proq joylarni egallab boradi<sup>4</sup>. Yuqorida sanab o'tilgan o'zga madaniyatlarining ta'siri borasidagi qonuniyatlar 19-asrdagi Xitoy madaniyatiga ham tegishli edi.

Xitoy tarixidagi modernizatsiya jarayoni G'arb bilan tengsiz muloqotlarda ro'yobga chiqdi. Feodal jamiyatning so'nggi davrlariga kelib Xitoy allaqachon dunyoning rivojlangan kapitalistik davlatlaridan ancha orqada qolib ketgan edi. Feodal boshqaruv va G'arbnig Sharqda olib borayotgan mustamlakachilik siyosati Xitoyda chuqur ijtimoiy tanazzulni yuzaga keltirishi bilan birga obyektiv jihatdan ilg'or madaniyat kirib kelishiga ham imkoniyat yaraldiki, bu iqtisod, siyosat, texnologiya kabilarni o'z ichiga olgan keng ma'nodagi madaniyat edi. Bu ikki madaniyat o'rtasida katta to'qnashuv keltirib chiqardi va mana shu to'qnashuvda Xitoy G'arb madaniyatning ko'p jihatlarini o'zlashtira boshladi. Shu tariqa Xitoy tarixining ichki talabi va g'arb svilizatsiyasining namoyishkorona ta'siri birlashdi hamda ular birgalikda Xitoyni modernizatsiyalash tipi va tarixiy yo'nalishi shartlarini belgilay boshlashdi<sup>5</sup>. Shuningdek, Xitoyga yangi "tarix" olib keldi, "turg'un" va "konservativ" Xitoyga

<sup>4</sup>А.Дж.Тойнби. Цивилизация перед судом истории: Сборник/Пер.с англ. —2-е изд. —М.: Айрис-пресс, 2003. —С.461.

<sup>5</sup>许纪霖、陈达凯:《中国现代化史.1800-1949》, —上海:上海三联书店, 1995年, 第003页。(531页)  
(Xu Jilin, Chen Dakai: Xitoyning modernizatsiya tarixi. 1800-1949. —Shanghai: Shanghai Sanlian, 1995 y. — B.003.)

“zamonaviy” nomi ostida islohotlar kirib keldi<sup>6</sup>. Umuman aytganda, Xitoyga ilg'or madaniyatning kirib kelishi bir tomondan bir necha asrga ilgari ketgan dunyo mavjudligini ko'rsatib; diniy, konservativ aqidalar bilan uzlatga chekingan xalqni uyg'otib, sekin-astalik bilan mahkam o'ralib olgan qobiqlaridan chiqarib, sinchkovlik bilan mavjud vaziyatni tahlil qilish va G'arbdan o'rganishni boshlashga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan Xitoyning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarda ham o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xulosa qilib aytganda, G'arb kapitalizmi va feodalizmning integratsiyalashuv muvaffaqiyati bevosita yangi madaniyatning qudratiga bog'liq bo'ldi.

Biz yuqorida sanab o'tgan bir qator o'zgarishlar adabiyotda, xususan she'riyatda ham o'z aksini topa boshladi va natijada xitoy milliy she'riyati kuchga kirib turg'unlikdan rivojlanish sari ildamlab, she'riyatni yangilash yo'riqlarini faol ravishda g'arbdan qidirishga kirishdi.

Li Jintao fikriga ko'ra, har qanday yangi adabiy hodisa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u albatta o'zining chuqur tarixiy sabalariga ega bo'lishi kerak. Xitoy yaqin davr she'riyatida yuzaga kelgan evrilishlar ham xuddi shunday, uning yuzaga kelishida so'nggi Ming davrida (Ming sulolasi davri: 1368 - 1644) boshlangan gumanizm hamda Ming va Qing sulolalari davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan “Amaliyotchilik”<sup>7</sup> g'oyalarning ahamiyati katta<sup>8</sup>. Bundan ko'rinadiki, xitoy she'riyatidagi evrilishlar o'zining chuqur falsafiy asoslariga ham ega edi. Qadimgi xitoy falsafiy asarlarini kuzatib dastlab unda gumanistik g'oyalar keng targ'ib qilinganligini ko'rish mumkin. Masalan, “天矜于民，民之所欲，天必从之。”<sup>9</sup> — “Parvardigor insonlar uchundir, ular neki istak qilsalar, parvardigor ularni ijobat qilg'ay.”, “民为贵，社稷次之，君为轻。”<sup>10</sup> — “Xalq birlamchidir, davlat esa undan quyida, amaldorlar keraksizdir.” Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda konfutsiychilik va Mengzi falsafiy ta'limotining asoslari bo'lgan yuqoridagi qarashlar o'z davrida inson, uning hayoti birinchi o'ringa qo'yilgani, ya'ni gumanizm g'oyalari ustuvor bo'lgan degan xulosalarni dalillaydi. Xan sulolasidan so'ng (milodiy 3-asr) konfutsiy ta'limotining xitoy madaniyatidagi o'rni va mavqei sekin-astalik bilan ortib borar ekan, u endi odamlarning axloqiy me'yorlarini belgilab berish chegarasidan o'tib huquqiy mazmunga ega bo'lgan standartlarni hayotga tadbig' qila boshladi. Song va Ming sulolalari davrida neokonfutsiychilik o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilganda, bunday qarashlar misli ko'rilmagan darajada kuchaydi. Masalan, Chen Ening “Ota farzanddan ustun turgani kabi, imperator boshqa amaldorlardan ustundir, bu Osmon ostida belgilangan qonun, undan hech kim qochib qutilish mumkin emas” (“父子君臣，天下之定理，无逃于天地之间”), Zhu Xining “Imperator va amaldor, ota va farzand o'rnini almashtirib bo'lmaydi, bu dunyoning oddiy qoidasidir” (“君臣父子，定位不易，事之常页”), “Odamni nima badnom qiladi?"; yoki bo'lmasa Liu Jiu-yuanning

<sup>6</sup>龙泉明:《20

世纪中国文学的现代性论析》//学术月刊, 1997年9期。世纪中国文学的现代性论析》//学术月刊, 1997年9期。(Long Quanming:20-asr xitoy adabiyotining zamonaviylashish xususiyatlari//Ilm oylik jurnali,1997 yil, 9-son.)

<sup>7</sup>实学 — Amaliyotchilik – amalda qo'llash asosiy mazmuni bo'lgan o'ziga xos g'oyaviy yo'nalish va nazariyadir.

Xitoy amaliy tafakkuri Song sulolasi davrida vujudga kelib, Ming va Qing sulolalarida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi.U konfutsiylik rivojining bosqichli nazariy shakli bo'lib, qadimgi Xitoy tafakkurining zamonaviy tafakkurga aylanishida vositachi va ko'pri bo'ldi. “Amaliyot” tushunchasi Xitoyning turli tarixiy davrlarida turli xil ma'nolarga ega; hatto bir xil tarixiy davrda ham turli xil tafakkur maktablari tufayli ko'pincha turli xil talqinlari mavjud. Lekin u hamisha amaliy xususiyatga ega bo'lgan, ya'ni haqiqatni targ'ib qilish va uydirmalarga barham berish, zamonning asosiy qarama-qarshiliklari haqida qayg'urish, davrning asosiy muammolariga javob berish kabilar bilan shug'ullangan.

<sup>8</sup>李金涛:《艰难的突围:中国近代诗歌转型论》,-北京:中国文联出版社,2002,第2-3页。第2-3页。(Li Jintao: Murakkab jarayonlar: xitoy yaqin she'riyatida o'zgarishlar tadqiqi. – Pekin: Zhongguo wenlian nashriyoti, 2002, - B. 6.)

<sup>9</sup>张鲁原编著,中华古谚语大辞典,上海大学出版社,2011.10,第174页。(Zhang Luyuan: Xitoy qadimgi maqollar lug'ati. –Shanghai:Shanghai universiteti, 2011, - B.174)

<sup>10</sup>李泽华: “民为贵,社稷次之,君为轻”的思想渊源.//史学月刊, 2017年第2期.

“Orzu-umid... U bo‘lmasa qalbing oromda bo‘ladi” (“夫所以害吾人者何也？欲也。……欲去，则心自有矣”). kabi mafkuraviy qarashlari fikrimizga yaqqol isbot bo‘la oladi. Diniy ta‘limotlarning insonlar ustidan ochiqcha hukmronlikka erishishi, ularning barcha hatti-harakatlarini total nazorat qila boshlashi, provardida bu qonuniy darajagacha ko‘tarilishi oddiy xalqning individual rivojlanishi, bir so‘z bilan aytganda o‘zligini anglashdan to‘liq mosuvo qildi deb aytish mumkin. Xalqni aynan shunday ta‘limotlar yordamida tobyelantirish hukumatni to‘la qoniqtirgan va tabiiy ravishda uning keng yoyilishini qo‘llab-quvvatlagan. Bu xitoy xalqining ma‘nan yuksalishga katta to‘siq bo‘lib, uning qoloqlashuviga va natijada o‘zga xalqlar tomonidan mahv etilishi hamda ularning madaniyatini qabul qilishgacha bo‘lgan og‘ir vaziyatlarga olib keldi. Ming davrining so‘nggi davrlariga kelib ayrim ilg‘or ziyolilar gumanizm g‘oyasi ostida birlashib Xitoy feodal jamiyatidagi avj olgan mutaassiblikga, oddiy xalqni hukmdor, amaldorlar va ibodatxona manfaati uchun manipulyatsiya qilish bilan shug‘ullanib kelayotgan ta‘limotlarga qarshi kurasha boshlashdi. Ular “har bir insonning o‘z egosi bo‘lishi kerak”, shiorini ilgari surib, odamlar o‘zini anglashi, uyg‘onishi kerakligi, ular orzu-niyat qilishi, unga intilishi zarurligi, bu muvaffaqiyatni harakatlantiruvchi kuch ekanligini keng targ‘ib qila boshlashdi. Biroq bu gumanistik harakat qo‘llab-quvvatlovchilar kam bo‘lganligi va keskin qarshiliklar sabab ko‘p davom etmadi, lekin uning g‘oyalari keyingi davrga ham ko‘chib o‘tganligini kuzatishimiz mumkin.

Dastlab ikki Song sulolalari davrida Buddha dinining bid‘atlariga qarshi “Amalyotchilik” harakati yuzaga kelgan edi. Bu harakat Konfutsiychilik ta‘limotining haqiqatni izlovchi nazariyotchilarga teskari ravishda ta‘limot qoidalarini real hayotda, amalda qo‘llash tartibini ishlab chiqishga kirishdi. Ular turli haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlarga qarshi turib, o‘zlaridan oldingi avlodning g‘oyalarini tartibga keltirish, tanqidchilik va chin mohiyatni izlash kabilarga katta e‘tibor qaratishdi. Bu esa jamiyatda ulkan ta‘sirni yuzaga keltirdi. Biroq bu harakat Ching sulolasining so‘nggi chorak davrida Afyun urushlari arafasida Ching sulolasi boshqaruvining 2 -yarmida turg‘unlik davrini boshdan kechirgan “Amalyotchilik” hamda gumanistik harakatlar yana jonlana boshladi. Bu harakatlar o‘z g‘oyalari bilan jamiyatning siyosiy hayotiga chuqur ta‘sir qilishi bilan bir vaqtda, she‘riyatda ham o‘zgarishlar bo‘lishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir o‘tkazdi. Buni o‘sha davrdagi ayrim shoirlarning she‘rlarida individ erkinligi, shaxs huquqi, vatanni, millatni qutqarish kabi real ijtimoiy muammolar kuyilana boshlanganligida kuzatish mumkin.

Aytadigan bo‘lsak, yuqorida aytib o‘tilgan she‘riyatda yangilanishlar bo‘lishiga olib kelgan uch omil tashqi bo‘lib, she‘riyatdagi evrilishlar jarayoniga bilvosita ta‘sir qilgan. She‘riyatning o‘z rivojlanish qonuniyatlari bu davr she‘riyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi ichki sabab sifatida namoyon bo‘ladi. Xo‘sh, bu qonuniyat qanday? She‘riyat o‘zi uchun ma‘lum bir qoidalar paradigmasini yaratdi, va shu paradigma doirasidan chiqmagan holda rivojlandi. Biroq, muttasil ravishda yangi muammolarning paydo bo‘lishi va ularga o‘z vaqtida yechim topish yoki yangi omillarni singdirish qiyinchilik tug‘dira boshlaganda mavjud paradegmaning inqirozi yuzaga keladi. Eski paradigma yoki qolipning zaiflashuvi o‘z-o‘zidan yangi paradigma yoki qolipning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xitoy she‘riyatida o‘zgarishlarning boshlanishi Tomas Kunning ilmiy inqilob nazariyasiga mos kelib, ming yilliklar davomidagi barqaror taraqqiyot va to‘plangan tarixiy an‘analar asosidagi she‘riyat Afyun urushi arafasiga kelib avlodlar tomonidan rad etila boshlandi, mavjud paradigmani davom ettirish imkonsiz bo‘lib qoldi. Millat dardi, insonparvarlik, shaxs erki, vatan ozodligi kabi mavzular va tafakkur tarzining o‘zgarib borishi she‘riyatning asl me‘yorlaridan voz kechib, yangi poetik tartib o‘rnatish ya‘ni eskisini rad etuvchi butunlay yangi paradigmaning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu she‘riyat ichidan sodir bo‘lishi kerak bo‘lgan muqarrar hodisa edi.

19-asrning birinchi yarmida Xitoy jamiyati ulkan tarixiy evrilishlar jarayonining arafasida edi. Shunga binoan xitoy she‘riyati ham nihoyat yangicha hayot tarzi, g‘arb madaniyati, sara an‘analar va she‘riyatning ichki rivojlanish qonuniyatlari kabi bir qator tashqi va ichki omillarning ta‘siri ostida

ana'anaviylikdan zamonaviylik sari ildamlashni boshlagan o'ta murakkab tarixiy jarayonlar sari qadam qo'yishni boshladi.

Dehqonlar qo'zg'onlarining avj olishi, g'arb mustamlakachilarining tahdidi ostida Xitoyda ming yillardan beri davom etib kelayotgan feodal tuzum zaiflasha boshladi. Tobaroz mazlumlashib borayotgan xalq hamda ozodligi muqarrar xavf ostida qolayotgan yurt adabiyotning nazaridan chetda qolishi mumkin emas edi. Shunday bir vaziyatda Gong Zizhen (龚自珍), Wei Yuan (魏源), Zhang Jiliang (张际亮), Zhang Weiping (张维屏) kabi bir guruh vatanparvar shoirlar maydonga chiqdi. Ular birin-ketin ta'sirchan, samimiylikka to'la, odamlarni junbushga keltiradigan vatanparvarlik tuyg'ulariga boy bo'lgan she'rlar yoza boshlashdi va natijada xitoy adabiyoti tarixida vatanparvarlik she'riy oqimi yuzaga keldi.

Bu oqim she'riyati vatanparvarlik va ma'rifatchilik g'oyalarini targ'ib qilish bilan birga ko'zni ochib tashqi dunyoga ham nazar solish kerakligini uqtirdi va mavjud qat'iy poetik qoidalarga qarshi chiqib boshlashdi. Ular eng murakkab davrda yaqin davr xitoy she'riyatidagi tarixiy evolyutsion jarayonlarni boshlab berdi.

Gong Zizhen xitoy adabiyoti tarixida feodal jamiyatning eng so'nggi va shu bilan bir vaqtda yangi davrning ilk shoiri sifatida e'tirof etiladi<sup>11</sup>. U Afyun urushi arafasida katta jasorat ko'rsatib she'rlarida jamiyatni isloh qilish, ozodlik kabi mavzularni ko'tara boshladi. She'rlaridagi yuqori ijodkorlik ruhi nafaqat o'z davrining boshqa vatanparvar shoirlari ijodiga, balki butun bir yaqin davr she'riyat maydonida islohotlarning boshlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Uyquda bo'lgan, ya'ni bo'layotgan voqeliklarni anglashga idroki yetmayotgan har qanday jamiyatda xushyor kishilar guruhi albatta mavjud bo'ladi. Kong Zichen ham shundaylardan bo'lib, uning hayoti Ching imperiyasining orqaga ketish davri bilan yonma-yon kechdi. U xalq ahvolining og'irlashib borayotgani, ular hamon "buyuk imperiya" shiori bilan mast ekanligi, davlatning tang ahvolga kelib qolganligi va bu hukumat tomonidan xaspo'shlanayotganligini to'liq his qildi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 19-asrning birinchi yarmida Xitoyda yuz bergan ulkan tarixiy o'zgarishlar davrida xitoy she'riyati nihoyat real hayotga evrila boshladi hamda g'arb madaniyati va xitoy an'anaviy madaniyatining ustun jihatlarini singdirishga kirishdi, she'riyat rivojlanishi qonuniyatlarining tashqi va ichki omillarining birgalikda tutgan roli yordamida an'anaviy shakldan zamonaviyga o'tish kabi o'ta murakkab jevrilish jarayonini boshlab berdi

<sup>11</sup> 李金涛:《艰难的突围:中国近代诗歌转型论》,-北京:中国文联出版社,2002,第15页。第2-3页。(Li Jintao: Murakkab jarayonlar: xitoy yaqin she'riyatida o'zgarishlar tadqiqi. – Pekin: Zhongguo wenlian nashriyoti, 2002, - B. 15.)